

Date: 9<sup>th</sup>December-2024

## NOGIRONLIGI BOR BOLALAR BILAN ISHLASHDA TURLI METODLARDAN FOYDALANISH.



Siddiqova Zulfiya – FarDU o‘qituvchisi.

Yo‘Idashaliyeva Rayhona Zafarjon qizi – FarDU talabasi.

To‘lanboyeva Nodira Abdusamad qizi – FarDU talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu ishning maqsadi nogironligi bor bolalar ishlashning turli metodlarini tahlil qilishdir.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang’ich sinf, nuqsoni bo’lgan bolalar, nutq, aqliy salohiyat, ma’naviy tarbiya.

3-dekabr xalqaro nogironlar kuni.

Bola ruhi beg’ubor olam. Buyuk mutafakkir Jon Jak Russo takidlaganidek: Biz zaif holda dunyuga kelamiz- bizga kuch kerak, biz yordamga muhtoj bo’lib ko’z ochamiz- bizga yordam zarur; biz murg’ak ong bilan tug’ilamiz bizga aql-zakovat darkor.Tug’ilganimizda nimagaki muhtoj bo’lsak, va voyaga yetgach ularsiz yashashimiz mumkin bo’lmasa bularning barini bizga tarbiya beradi:

Darhaqiqat, ota-onা andoza, ustoz otangdek ulug’ degan hikmatlari bor. Farzandlarni ba’zan kamchiligin hatosini yuziga solib salbiy ta’sirlar ko’rsatib tengdoshlaridan kamsitmang. U go’yoki cheklanganday his qila boshlaydi. Ayniqsa, mafkuraviy jihatdan tarbiyaga o’ta hushyorlik zarur “ Qush inida ko’rganini qiladi”. Kamchilik nuqsonlarni ildizini oila ustoz o’zidan qidirmog’i kerak. Zotan ulug’ mutafakirkarni tarbiyalagan sharqni mashhur qilgan bu yurtning farzandlari ham har tomonlama barkamol bo’lmog’i darkor. Axir boladagi noyob layoqatni qobiliyatga aylanishida oila atrof-muhit, mакtabni hissasi beqiyosdir. Ulug’ ustoz uch unsurni unutmang!

Ustoz- ilm-urfon, ahloq targ’ibotchisi, yosh nihollarni ezgu his-tuyg’ular ruhida tarbiyalovchi fidoiy zotdir. Uni bog’bonga qiyos qilishadi. „Bog’bon yaxshi bo’lsa.“ degan nasihat ham berishadi.

Ilmiy ma’lumotlarga ko’ra, ongning rivoji kattalarga qaraganda bolalarda tez kechar ekan. Shuning uchun go’dak 2 yoshdan yaxshi yomonni ajrata oladi. Uch yoshdan „ shaxs“ ga aylana boshlaydi, o’zining „ Men“ nini taniganidan keyin esa, undan aqliy rivojlanish uchun keng maydon ochiladi.Aqliy qobiliyatning 50% i 4 yoshdan, 30%i 8 yoshda, qolgan 20%i keyingi yoshlarda ro’yobga chiqadi. **Bolaning har kuni bayram.**

Darhaqiqat, „ Kulib boqsin bola dunyoga“, „Bola dunyonni tebratar“, „ Bolaligim podsholigim“ ajdodlarimiz ta’biri bilan aytganda: Beg’ubor bolalik inson umri fasllarning eng gullab yashnagan bahoridir. Bu dunyoda hamma bolalar ham kamalakning rangi qanday tovlanishini ko’rishdan bahramand emas. Necha-necha bolalar chopqilab yurgan tengdoshlarining ortidan horsinganicha armon bilan termilib qolishgagina majbur. Yana qancha bolalar rangbarang tabiatning, borliq olamning tovushini eshitishdan mahrum, qay biri esa dildagi gaplarini tiliga ko’chira olmaydi. Bunday nogiron bebaho hayot

Date: 9<sup>th</sup>December-2024

ne'matlaridan bebahra o'ksik dillarga g'amhorlik ko'rsatayotgan davlatimizning xizmati beqiyos dunyoga ibrat. Dastlabki, mustaqil yurtimizning birinchi ordeni "Sog'lom avlod uchun" deb nomlandi. "Sog'lom avlod uchun" xalqaro jamg'armasi tashlkil etildi.

Maxsus maktab, bog'chalar uylariga qatnab o'qitish. Ammo shunga qaramay bola bola-da. Ular o'zlarining ne sababdan boshqa tengdoshlaridan ajralib qolayotganini qayerdan ham tushunsin. Ularku, bolaligiga boradi, ammo kattalar ham jajigina taqdirga tanberib tura olmadilar. O'ksik dillarni malhami, tabibi xaloskor, fidokor nogironlar tinimsiz izlandilar. Nogiron bolalarni tarbiyalash, o'qitish bog'cha, maktablar sharoitida 2005-yildan boshlandi. Joylarda sog'lomlashadirish bog'cha maktablari tashkillanib, 6 yoshdan 13 yoshgacha bo'lган bolalar guruhlar asosida o'qitila boshladi. Eshitish qobilyati past boshlang'ich sinf o'quvchilarda so'zlashuv nutqini shakllantirish.

Bedil kabi oz so'zlagil,  
Navoiydek soz so'zlagil.  
Bobur kabi rost so'zlagil,  
Nutqing ravon bo'lzin bolam!

**Iqbol Nazarov.**

Biz ta'limning poydevori boshlang'ich ta'limning ustozlari, tinimsiz izlanishda bo'lib, amaliyotchi talabalarni amaliyotlarida uzviylik yanada mustahkamlanadi. Biz boshlang'ich sinfdagi eshitishda biroz nuqsoni bor o'quvchilarga davlat tili o'zbek tilini o'rgatish uchun- qiyosiy manba sifatida mazmun kasb etuvchi so'zlashuv nutqini shakllantirishning quydagi omillarga bevosita bog'liq deb hisoblaymiz.

1. Eshitish holati va nuqson darajasiga,
2. O'quvchilarning talafuz ko'nikmalari, lug'at zahirasining holatiga,
3. Nazorat ishlariga, o'qituvchi va ruhshunosning yo'nalishi bo'yicha saviyasiga,
4. Nuqsoni bo'lган oiladagi e'tibor hamda maktab va oila hamkorligiga.

Har bir jamiyatda bo'lgani singari, bizning mamlakatimizda ham jismoniy yoki ruhiy rivojlanishdan nuqsoni bor bolalar bor, sog'lom bolalar qatori ularni ham ilm olishga, kasb hunarga yo'naltirishga, ishi hayotida o'z o'rnilarini topishlarida ko'maklashishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'grisida" gi qonunda alohida ahamiyat berilgan. Jismoniy va aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lган bolalarni ilk yoshida sog'lom bolalar orasida bo'lismash inkyuziv ta'limni joriy etish bu kunning dolzarb mavzusiga aylanmoqda. Inkluziv ta'lim- bu dablat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etadi, mahsus ta'limga muhtoj bolalar, o'smirlarni rivijlanishida uchraydigan nuqsonlardan qat'iy nazar bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan ta'lim tizmidir.

Biz yuqorida aytib o'tgan imkoniyati cheklangan bolalarda asosan quydagi belgilarni kuzatishimiz mumkin:

- ✓ Eshitish qobilyati buzilgan bolalar.
- ✓ Ko'rish qobilyati zaiflashgan yoki mutlaqo ko'rmaydigan bolalar.
- ✓ Ko'r soqov bolalar.
- ✓ Aqliy rivojlanishi zaif bolalar.

Date: 9<sup>th</sup>December-2024

- ✓ Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar.

Ularning qanday nuqsonga ega ekanligidan qatiy nazar, imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishlariga, o'zlariga mos kasb tanlashlarida yordam berish, tanlagan kasblarida davomli qolishlarini ta'minlash bizning vazifamizga kiradi. Yaqinda saylangan qonunchilik palatasidagi 65 senatrlar safida nogironlar vakillari ham bor.

Bolalarga bering, dunyoni!

Dunyoning barcha davlatlarida istiqomat qilayotgan millati, irqi, dini jinsidan qatiy nazar barcha bolalar teng huhuqga baxtli yashashga haqlidir. Ular ham ilm olish kasb tanlash sport va boshqa sohalarda iste'dod talantlarini namoyish qilishi mumkin.

Bolalarimiz kelajagimiz.

O'g'limiz, qizimiz- bizdan qolar izimiz! Dunyo bolalarini himoyachisi haq huquqini amalga oshiruvchi suyangan tog'i, 1959-yil 20- noyabrda BMT qarori asosidagi konvensiya dunyo bilalarining g'amxori BMT ni 1946-yil 11-dekabrdagi birinchi sesiyasida YUNISEF nufuzli tashkilotlari tashkil topgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. T. Qurbonovning "Bola qalbiga yo'l" kitobidan.
2. Y. Qurbonovning: "Quva tumani tarixidan lavhalar" kitobidan.
3. "Maktab va hayot" jurnalidan.
4. Y.Qurbonovning "Ta'lim va ekalogiya keljakni belgilaydi" kitobidan.